

## MAKTAB O'QUVCHILARIGA XITOIY TILINI O'RGATISHDA “的”, “得”, “地” YORDAMCHI SO'ZLARINING O'QITISH METODIKASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653752>

### Mamatova Dilshoda

SamDCHTI, Sharq tillari fakulteti, Yaqin sharq tillari kafedrası o'qituvchisi, Ilmiy rahbari

### Isoqulova Gulxon

SamDCHTI, Sharq tillari fakulteti, filologiya va tillarni o'qitish: Xitoy tili 1-bosqich 112-guruh talabasi

**Tel: +998992541030**

### ANNOTATSIYA

*Maqolada hozirgi kunda xitoy tilini o'rganuvchilar soni ko'payib borayotganini ahamiyatga olgan holda og'zaki va yozma nutqda qo'llaniladigan "de" yordamchi so'zlarining grammatik qoidasi hamda o'rtasidagi farq yoritilib berilgan bo'lib, maktab yoshidagi o'quvchilar hamda endigina xitoy tilini o'rganuvchilar uchun nisbatan murakkab hisoblangan de lar haqida qisqacha boshlang'ich darajadagi ma'lumotlar berib o'tilgan bo'lib, “的” o'zbek tilida qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishi; “得” fe'l so'z turkumidan keyin qo'llanilib, o'ziga ravish hamda sifat so'z turkumiga oid so'zlarni qabul qilib, ish-harakatning qay holatda amalga oshirilganligi ifodalashi; “地” ravishdan keyin qo'llanilib fe'l bilan bog'lanishi, gapda ravishdosh vazifasini bajara olishi bilan farqlanishi misollar bilan ochib berilishga harakat qilindi.*

**Kalit so'zlar:** 白勺 “的”, 双人 “得”, 土也 “地», tasvirlovchi, ravish, qaratqich aniqlovchi.

### ABSTRACT

*The article highlights the grammatical rule of the auxiliary words "de" used in oral and written speech and the difference between them, given the increasing number of Chinese language learners today and a brief introduction to the "de" which are relatively difficult for beginners to learn Chinese, and the fact that "de"; “的” which comes in sentences as a genitive particle in Uzbek grammar, The second “得” is used after the verb and takes the words of the adjective and the adverb and the third “地” is used after the participle and helps to connect with verb, and it comes in*

the sentences as an adverb. In this article is attempted to illustrate the differences all of "de".

**Key words:** 白勺的, 双人得, 土也地, description, adverb, genitive particle.

### АННОТАЦИЯ

В статье освещается грамматическое правило вспомогательных слов «дэ», используемых в устной и письменной речи, и разница между ними, учитывая растущее число людей, изучающих китайский язык сегодня, а также краткое введение в относительно сложные «дэ». для начинающих изучать китайский язык, и то, что «дэ» в узбекском языке служит определенным артиклем; Глагол «дэ» употребляется после причастия, а прилагательное — после причастия, а глагол «дэ» — после причастия; предпринимались попытки проиллюстрировать связь между и его способностью выполнять функцию согласного звука в предложении.

**Ключевые слова:** 白勺的, 双人得, 土也地, описание, наречие, родительная частица.

### KIRISH

Xitoy tilida mavjud bo‘lgan uchta “de” haqida ushbu ishda qisqa to‘xtalib o‘tadi. “的” o‘zbek tilida qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishi; “得” fe‘l so‘z turkumidan keyin qo‘llanilib, o‘ziga ravish hamda sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni qabul qilib, ish-harakatning qay holatda amalga oshirilganligi ifodalashi; “地” ravishdan keyin qo‘llanilib fe‘l bilan bog‘lanishi, gapda ravishdosh vazifasini bajaradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ishda “汉语阅读教程» darsligidagi ko‘pgina misollar va qoidalardan foydalanildi. Mazkur darslik maktab yoshida xitoy tilini endi o‘rganishni boshlagan o‘quvchilar va talabalar uchun oson grammatik qoidalar hamda mashqlar tizimiga asoslangan bo‘lib, “de” qo‘shimchasiga juda ko‘p elementar misollar keltirilgan. “Elementary Chinese Grammar 基础汉语语法” o‘quv qo‘llanmasida ham har bir “de” lar haqida atroflicha ma‘lumot berib o‘tilgan bo‘lib, mazkur ishda ko‘pgina jadval va misollar, asosiy grammatik qoidalar aynan shu kitobdan olinib, snoskalar keltirildi.

“标准教程” - Standard course HSK 一级 maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun eng sodda va oson qo‘llanma bo‘lib, unda “的” haqida eng ko‘p qo‘llaniladigan qoida

va misollar o‘quvchilarga tushunarli tarzda keltirilgan. O‘quvchilar eslab qolishlari uchun qulay.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan strukturalar "de" yordamchi so‘zlar hisoblanadi. Xitoy tilini o‘rganish jarayonida "de" so‘zining qo‘llanilishidagi farqni yaxshilab tushunib olish zarur.

Xitoy grammatikasida "de" yordamchi so‘zi tarkibiy qismiga ko‘ra 3 turga ajratiladi. Bular:

白勺的 - bái sháo de ; 双人得 - shuāngrén de; 土也地 - tǔyě de

白勺的

Egalik ko‘rsatkichi bo‘lib keladi:

Ikkita otni bir biriga bog‘lashda xizmat qilib 的 dan keyin keladigan ot 的 dan oldin kelayotgan otga tegishli bo‘ladi.

Ot/olmosh+的+ot

李月是我的老师。

这是我的书。

她不是我同学， 她是我朋友。 [3;24]

Shunga qaramasdan, 的 quyidagi holatlarda tushib qoladi:

1. Qachonki, olmoshdan keyin yaqin qarindoshlar yoki shaxslar, 爸爸 ,妈妈,哥哥,姐姐,弟弟,妹妹,朋友,老师 kabi otlarni ifodalab kelsa, 的 ishlatilmaydi.

A:你爸爸做什么工作?

B:他是医生， 在医院工作。

A:你妈妈呢?

B: 我妈妈是老师.[1,87 ]

2. Qachonki, olmoshdan keyin chambarchas bog‘liq bo‘lgan, 家, 国家 , 学校 yoki 班 kabi joy nomlari kelsa 的 ishlatilmaydi.

我是日本留学生， 我叫山田。 我家在日本东京。 [1,64]

我们学校有一个图书馆。 [1,95]

Agar otlar uyushib kelsa, har bir otning oldidan qoyishning o‘rniga 的 har doim asosiy ma‘noni ifodalagan otdan oldin ishlatiladi.

我姐姐朋友的老师是我哥哥同学的爱人。 [ 2,9]

Tasvirlovchi bo‘lib keladi; Otlar oldidan ishlatilib, ularning xususiyatini, rangini ifodalab 的 dan oldin sifat ishlatiladi.

Shunga qaramasdan, bir bo'g'inli 好 yoki 忙 sifatlari bilan otdan oldin 的 ishlatilmaydi, natijada esa sifat ot frazalari paydo bo'ladi: 好书, 好老师, 忙人. Tasvillanayotgan so'z fraza yoki gap ham bo'lishi mumkin. Bu ingliz tilidagi teskari nisbatli gap bo'ladi.

小王买的书很好 [2,10]

Asosiy gap 书很好 "juda yaxshi kitob" va kitobni tasvirlovchisi esa 的 dan oldingi qism, ya'ni 小王买 "Xiao Wang sotib olgan kitob". Shunga qaramasdan, quyidagi holatlarda 的 ishlatilmaydi:

Qo'shma ot hosil qiluvchi boshqa otni ifodalash uchun ot sifatlovchisi ishlatilsa 的 ishlatilmaydi. Ta'riflanuvchi ot tasvirlovchidan keyin qo'yiladi. Masalan: 中国地图, 中国 - 地图 ning tasvirlovchisi bo'lib kelyapti. 汉语书- bunda esa 书 ning tasvirlovchisi 汉语 bo'ladi.

Ba'zan otdan keyin 的 ko'p takrorlanmasligi uchun tashlab ketiladi, lekin tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun esa to'ldiruvchi vazifasidagi ot yashirin holatda keladi.

他的书很多, 中文的, 英文的, 都有。 [2,11]

Bu yerda ko'rinib turibdiki, 书 kitob ko'p takrorlanmasligi uchun tushib qoldirilgan.

双人得

得 daraja to'ldiruvchisi ko'p hollarda quyidagi holatlarda ishlatiladi:

1. Odatiy ish harakatni ifodalash uchun. Boshqa so'z bilan aytganda biror kishi biror ish harakatni qay tarzda bajarishini ifodlaydi.
2. Bajarib bo'lingan ish harakatning natijasini tasvirlab beradi.
3. Turg'un fe'llarni tasvirlab beradi.

得 har doim fe'ldan oldin keladi. Shuni yodda tutish kerakki, qachonki fe'l-obyekt shaklida ishlatilsa, fe'l 得 dan oldin ishlatiladi. Shuning uchun ham fe'l daraja yasovchi to'ldiruvchisining birinchi qismida ko'pincha takrorlanadi. Misol uchun:

Ega	fe'l-obyekt	kesim	得	ravish
我	游泳	游	得	很快。
Wǒ	yóu yǒng	yóu	de	hěn kuài

Jadval 1 [2,63]

Bilamizki, 游泳 fe'l obyekt o'rnida kelgan, 泳 ot va 得 dan oldin ishlatilmaydi. Lekin, nutq jarayonida fe'l obyekt shaklidagi fe'l tushib qoladi.

Ega	fe'l- obyekt	kesim	得	ravish
我	—	游	得	很快。
Wǒ		yóu	d	hěn kuài

Jadval 2

Yuqoridagi daraja to'ldiruvchili gapning inkor shakli ravishdan oldin inkor ma'nosini beruvchi 不 qo'yish orqali yasaladi.

Ega	fe'l-obyekt	kesim	得	不 ravish
我	游泳	游	得	不快。
Wǒ	yóu yǒng	yóu	de	bú kuài

Jadval 3 [2,64]

土也地- 地 ning ishlatilishi

地 qo'shimchasi ish harakatning qanday sodir bo'lishini yoki qandayligini ifodalash uchun ishlatiladi. Tasvirlar ergash gap yoki ergash gap vazifasini bajarayotgan so'z bo'lishi mumkin. Harakatni ifodalayotgan ravishdan oldin 地 ishlatiladi

Ega	Ravish 地	Kesim	To'ldiruvchi
他	认真地	在纸上 写了	三个汉字
Tā	rènzhēn de	zài zhǐ shàng xiě le	sān gehànzi

Jadval-1 [2,66]

Ega	Ravish 地	Kesim	To'ldiruvchi
他	一笔一笔地	在纸上写了	三个汉字
Tā	Bǐ yì bǐ de	zài zhǐ shàng xiě le	sān ge hànzi

Jadval-2

Ko'rib turganingizdek 了 yuqoridagi jadvalda foydalanilgan. Ravish bu yerda qo'sha fe'l 在纸 dan oldin 一笔一笔地 kabi ifodalanib kelgan.

地 ravishining inkor shakli 不 orqali yasaladi va u ravishdan oldin qo'llaniladi.

Ega	不 ravish 地	Kesim	To'ldiruvchi
他	不认真 地	在纸上写	汉字
Tā	bù rènzhēn de	zài zhǐ shàng xiě	hànzi

Jadval 3

Inkor ma'noni ifodalaydigan 没 taklif qilingan ish harakatni inkor qilinganligini ifodalaydi.

Ega	没 ravish 地	Kesim	To'ldiruvchi
-----	------------	-------	--------------

他	没认真地	在纸上写	汉字
Tā	méi rènzhēn de	zài zhǐ shàng xiě le	hànzi

Jadval 4 [2,67]

Yuqoridagi gapning ma'nosi ieroglifning ehtiyotkotlik bilan yozilmaganligini ifodalaydi. Agar 地 dan oldin bir bo'g'inli ravish ikkilanganida, ikkilangan ravish ba'zan 1-tonda talaffuz qilinadi.

Ega	Ravish 地	Kesim	To'ldiruvchi
他	慢慢地	在纸上写了	三个汉字
Tā	màn mǎn de	zài zhǐ shàng xiě le	sān ge hànzi

Jadval 5

Yuqoridagi to'ldiruvchi " 汉字 " oldidan hisob so'zlar va son qatnashganligi sababli 地 ishlatilgan, agar to'ldiruvchi oldidan hech qanday son va hisob so'z qatnasmasa 地 tushib qoladi.

他总是认真工作。

小王总是努力学习中文。 Yuqoridagi gapda harakat tasvirlangan. Bunda siz darajali to'ldiruvchidan ham foydalansa bo'ladi va u quyidagicha bo'ladi:

小王学习中文学习的很好。

Yodda tutish kerakki, yuqoridagi ergash gapli (地) strukturlar harakatning qanday usulda bajarilganligini, darajali to'ldiruvchi (得) esa harakatning natijasini yoritib bergan. Ko'rganingizdek yuqoridagi gapda 努力 harakatning qanday bajarilganligini 好 esa bajarilgan ish harakatni tasvirlab kelgan.

### XULOSA

Xitoy tilini o'qitish metodikasida maktab o'quvchilariga 3ta "de" ning o'qitish jarayonida yetarlicha muammolar paydo bo'ladi. Natijada esa so'zlarni qo'llash bilan xatoliklarga yo'l qo'yiladi, mashqlarni bajarish jarayonida ham, nutqda foydalanishda hamda turli xil matn yoki insho yozishlarda ham ularni qo'llashda nutqiy ga'lizliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham, "de" yordamchi so'zlarini o'qitish jarayonida har biriga alohida to'xtalib o'tish lozim. Har bir "de" qaysi holatlarda kelishini misollar orqali ketirilib o'tish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida mavzuga oid dialoglar o'qitish va ularda qo'llanilgan har bir struktura tahlilini olib borish va shunga o'xshatilgan holda o'quvchilarning har biriga og'zaki nutqda qo'llash uchun gaplar tuzdirilsa yordamchi so'zlarning qo'llanilishini eslab qolish yuqoriroq bo'ladi. Xitoy tillarini o'qitishda ushbu usullardan foydalanish o'z samarasini beradi.

## REFERENCE

1. 汉语阅读教程，北京语言大学出版社，220页。
2. Elementary Chinese Grammar 基础汉语语法 2011，CTCFL University of Oxford, p:125
3. 标准教程 Standard course, HSK 一级，北京语言大学出版社，129页。
4. Saydaliev, T. K., Erkaev, E. T., & Djuraev, D. M. (2021). Review of abdulla kadiri's poetics in the novel " Days Gone By" in Russian translations. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 754-763.
5. Dilshod, D. (2012). *乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比* (Master's thesis, 新疆大学).
6. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127.
7. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ*, 1(1).
8. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в.* (pp. 84-88).
9. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 137-139).
10. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(8), 40-42.
11. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
12. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
13. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
14. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.

15. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
16. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
17. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
18. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
19. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
20. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
21. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
22. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
23. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
24. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
25. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
26. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).



27. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
28. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
29. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданий мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
30. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
31. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
32. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.